

**RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI KO'CHMAS MULK OBYEKT LARI
(QURILAYOTGAN, QURILGAN, TA'MIRLANAYOTGAN) NING VILOYATLAR
KESIMIDAGI KO'RSATKICHLARI**

Doktarant Berdibayeva Guliza Berdibay qizi
Toshkent Arxitektura-Qurilish Universiteti, O'zbekiston
Email: bbguliza@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi bo'yicha qurilgan ko'chmas mulk obyektlari, qurilish ishlari qiymati hamda uning hajmi, shu bilan birgalikda, ularning viloyatlar kesimida tashkil etgan ulushlari yoritib berilgan.


Kalit so'zlar: ko'chmas mulk obyektlari, bino, inshoot, fuqarolik obyektlari, ixtioslashtirilgan qurilish, yirik qurilish tashkiloti, kichik korxonalar va mikrofirmalar, norasmiy sektor

1 ta rasm, 6 ta jadval

Ko'chmas mulk obyektlarini qurish hamda mavjudlarini ta'mirlab mulk egalarga ekspluatatsiyaga topshirish jarayoni uzoq davomiylikka ega bo'lgan murakkab jarayon hisoblanadi.

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir. Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari maydoni rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida, O'zbekiston Respublikasida jami 27 564,6 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,5 % ni tashkil etdi.



1-rasm. Qurilish ishlarining dinamikasi, yillar kesimida

Yuqoridagi rasmda berilgan dinamikadan ko'rishimiz mumkinki, eng yuqori ko'rsatkich 2019-yilga to'g'ri keladi. 2020-2021 yillarga kelib COVID-19 pandemiyasi va uning ko'rsatgan ta'sirlari natijasida qurilish ishlari 5-6%ga kamaygan. 2023-yilga kelib tashkil qilingan qurilish ishlari 104,5% yoxud 27 564,6 mlrd so'mga teng bo'lganligi ko'rish mumkin. Bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan deyarli 1,5%ga kamroq.

Umumiy bajarilgan qurilish ishlarini va ularning qiymatlarini viloyatlar kesimida quyidagicha tasvirlash mumkin.

1 – jadval

Hudud	Qurilish qiymati, mlrd.so'm	% dagi ko'rinishi
Toshkent shahri	6 838,7	89,7%
Qoraqalpog'iston Respublikasi	984,8	96,4%
Andijon viloyati	1 215,2	100,6%
Buxoro viloyati	1 717,2	103,1%
Jizzax viloyati	658,8	100,6%
Qashqadaryo viloyati	1 669,3	100,1%
Navoiy viloyati	1 180,1	104,5%
Namangan viloyati	1 300,3	104,9%
Samarqand viloyati	1 735,2	107,4%
Surxondaryo viloyati	1 460,6	107,3%

Sirdaryo viloyati	634,2	100,3%
Toshkent viloyati	2 920,3	108,5%
Xorazm viloyati	903,7	102,9%
Farg'ona viloyati	1 720,1	104,5%

2023 yilning yanvar – mart oylarida hududlar kesimida xususan, Toshkent shahri (6 838,7 mlrd so'm), Toshkent viloyati (2 920,3 mlrd. so'm) va Samarqand viloyatida (1 735,2 mlrd.so'm) qurilish ishlarining hjmi qayd etildi.

Qurilgan obyektlarni Ko'chmas mulk obyektlarini klassifikatsiyalanishi bo'yicha qurilish ishlari ishlarini quyidagi tartibda taqsimlashimiz mumkin:



Bino va inshootlar qurilishi umumiy ulushga nisbatan 68,6% ulushga teng bo'lib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 103,5% ni tashkil etadi. Fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 19,8% ulushni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 114,1%ni tashkil qiladi. Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi esa 11,6% ulushni va 2022-yilning mos davriga nisbatan 96,4% ni tashkil etadi.

Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shu bilan birgaikda, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritilgan.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 24,8% ni tashkil etib, 2022 – yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,6% punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022 – yilning mos davridagi darajada saqlanib qolib, 49,9% ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022 – yilning mos davriga nisbatan 0,6% punktga kamayib, 25,3% ni tashkil etdi. 2 – jadval


Bino va inshootlarning qurilishi 18 909,3 mlrd.so'm		
24,8%	49,9%	25,3%
Yangi qurilish tashkilotlari 4 691,2 mlrd.so'm 2022-yilning mos davriga nisbatan 107,0%	Kichik korxonalar va mikrofirmalar 9 439,2 mlrd.so'm 2022-yilning mos davriga nisbatan 104,6%	Norasmiy sektor 4 778,9 mlrd.so'm 2022-yilning mos davriga nisbatan 97,9%

Bino va inshootlar qurilishi viloyatlar kesimida, 2023-yilning yanvar-mart oylaridagi ko'rsatkichlar 3 – jadval

Qurilish bajarilgan hudud	Bajarilgan qurilish ishlari qiymati, mlrd.so'm
Qoraqalpog'iston Respublikasi	583,3
Toshkent shahri	4 369,8
Andijon viloyati	913,0
Buxoro viloyati	1 160,7
Jizzax viloyati	526,8
Qashqadaryo viloyati	1 109,8
Navoiy viloyati	888,6
Namangan viloyati	930,1
Samarqand viloyati	483,2
Surxondaryo viloyati	1 096,6
Sirdaryo viloyati	455,2
Toshkent viloyati	1 824,3
Farg'ona viloyati	1 330,0
Xorazm viloyati	611,8

Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Jizzax viloyati (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 80,0%i), Farg'ona viloyati (77,3%) va Andijon viloyati (75,1%) da kuzatildi.

4 – jadval



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 21,3%ni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 5,1% punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 78,6% (5,1% punktga ko'payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,1%ni tashkil etdi va o'zgarishsiz qoldi.

Fuqarolik obyektlarining qurilishi viloyatlar kesimida, 2023-yilning yanvar-mart oylaridagi ko'rsatkichlar

5 – jadval

Qurilish bajarilgan hudud	Bajarilgan qurilish ishlari qiymati, mlrd.so'm
Qoraqalpog'iston Respublikasi	277,5
Toshkent shahri	1 212,8
Andijon viloyati	134,9
Buxoro viloyati	314,8
Jizzax viloyati	84,4
Qashqadaryo viloyati	335,3
Navoiy viloyati	234,3
Namangan viloyati	105,9
Samarqand viloyati	1 200,6

Surxondaryo viloyati	275,4
Sirdaryo viloyati	143,0
Toshkent viloyati	591,2
Farg'ona viloyati	294,1
Xorazm viloyati	243,7

Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Samarqand viloyati (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 66,2%i), Qoraqalpog'iston Respublikasi (28,2%) va Xorazm viloyati (27,0%) da kuzatildi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022-yilning mos davriga nisbatan 3,1% punktga ko'paydi va 18,4%ni tashkil etdi.



Qolgan 81,6%i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 3,1% punktga kamaydi. Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga

oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari viloyatlar kesimida, 2023-yilning yanvar-mart oylaridagi ko'rsatkichlar

6 – jadval

Qurilish bajarilgan hudud	Bajarilgan qurilish ishlari qiymati, mlrd.so'm
Qoraqalpog'iston Respublikasi	124,0
Toshkent shahri	1 256,1
Andijon viloyati	167,3
Buxoro viloyati	241,7
Jizzax viloyati	47,6
Qashqadaryo viloyati	224,2
Navoiy viloyati	57,2
Namangan viloyati	264,3
Samarqand viloyati	51,4
Surxondaryo viloyati	88,6
Sirdaryo viloyati	36,0
Toshkent viloyati	504,8
Farg'ona viloyati	96,0
Xorazm viloyati	48,2

Yuqorida berilgan aosiy ko'rsatkichlarni tahlil qilgan holda aytish mumkinki, ko'chmas mulk obyektlarini qurilish hajmi mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bajarilgan qurilish ishlari asosan yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlar tomonidan amalga oshirilgan. Umumiy bajarilgan qurilish ishlarining slkam 60%i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keladi, yirik qurilish tashkilotlarining bajargan qurilish ishlari umumiy hajmiga nisbatan deyarli 24%ni

tashkil etgan paytda, eng kam ulush ya'ni 17,3% norasmiy sektorlarning hisasiga to'g'ri kelmoqda.

Foydalanilgan internet manzillari:

1. www.wikipedia.com;
2. www.stat.uz